




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA IBORALARNING O'RGANILISH DARAJASI

LEVEL OF LEARNING OF PHRASE IN UZBEKISTAN AND TURKISH LANGUAGES

Nigora MENGLIYEVA,

ToshDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/WKAL5597

Annotation. *Uzbek and Turkish phrases are analyzed in this article. Somatic expressions (somatic phraseology or somatisms) are phraseological units formed with the participation of the names of human body parts (head, eye, hand, heart, hair, etc.), which constitute an important part of the phraseological wealth of the language. These expressions are of particular importance as a linguistic and cultural tool that reflects the people's worldview, culture, psychology and daily life experience.*


Key words: *Phrase, phrase, somatic, Uzbek, Turkish, imagery, figurative meaning, national ideology, culture, speech influence.*

Til jamiyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashi mujassam bo'ladi. Tilning boy qatlamlaridan biri bo'lgan frazeologiya esa aynan ushbu jihatlarni eng yorqin ifodalovchi tizim hisoblanadi. Frazeologik birliklar ko'chma ma'noga ega bo'lgan, turg'un shaklda qo'llanadigan va nutqda yaxlit holda ishtirok etadigan til birliklari sifatida inson tafakkuri va nutqiy faoliyatining muhim ko'rinishidir.

Frazeologik birliklar orasida iboralar alohida o'rin tutadi. Somatik iboralar inson tana a'zolari nomlari asosida shakllangan bo'lib, ular orqali insonning ichki kechinmalari, hissiy holati, ruhiyati va ijtimoiy munosabatlari obrazli tarzda ifodalanadi. Ayniqsa, bosh va ko'z kabi somatizmlar inson tafakkuri, idroki va hissiy dunyosi bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, ular asosida yaratilgan iboralar tilning eng faol va ifodali qatlamlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda til masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, o'zbek tilining nufuzini oshirish, uning ilmiy asosda rivojlanishini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tilning frazeologik qatlamini, xususan, iboralarni o'rganish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Somatik iboralar tilshunoslikda inson tana a'zolari nomlari asosida shakllangan frazeologik birliklar sifatida qaraladi. Bunday birliklar tilning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, insonning dunyoni idrok etish jarayoni bilan bevosita bog'liq holda shakllangan. Inson o'z tanasi orqali borliqni anglaydi va bu jarayon til birliklarida, ayniqsa, frazeologik qatlamda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli iboralar tilning nafaqat leksik, balki kognitiv va lingvokulturologik tizimida ham muhim o'rin tutadi [Телия 1996; 288].



1-rasm. Somatik iboralarning lingvistik xususiyatlari

Mazkur sxemada iboralarni tilshunoslikda o'rganishning asosiy yo'nalishlari umumlashtirilgan. Unda iboralar lingvokulturologik va jihatlar asosida tadqiq etilishi ko'rsatilgan.

Somatik iboralarni yo'nalishda o'rganishda ularning ko'chma ma'no asosida shakllanishi, obrazlilik xususiyati va ma'no kengayishi kabi jihatlar tahlil qilinadi. Bu yo'nalish frazeologik birliklarning mazmuniy mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Lingvokulturologik yo'nalishda esa iboralar milliy tafakkur va madaniyat bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bunda iboralar orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy tajribasi aks etishi asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaraladi.

Pragmatik yo'nalishda iboralar nutq jarayonidagi vazifasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, ularning nutqiy ta'sir kuchi, emotsionallikni ifodalash imkoniyati va kommunikativ ahamiyati o'rganiladi.

Frazeologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida jahon tilshunosligining o'rni beqiyosdir. Frazeologik birliklarning nazariy asoslari dastlab rus tilshunosligida mukammal ishlab chiqilgan. Xususan, V. V. Vinogradov frazeologik birliklarni jihatdan tasniflab, ularni frazeologik birikmalar, frazeologik birliklar va frazeologik srajeniyalarga ajratgan [Шанский 1985]. Bu tasnif frazeologiya fanida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

1. V. Kunin frazeologik birliklarning asosiy belgilarini aniqlab, ularning barqarorlik, qayta qo'llanish va yaxlitlik kabi xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan [Амосова 1963]. Tadqiqotchining ushbu yondashuvi frazeologik birliklarni erkin so'z birikmalaridan ajratishda muhim nazariy mezon bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, yaxlitlik tushunchasi frazeologizmlarning komponentlari alohida ma'no anglatmasdan, yagona umumiy ma'no hosil qilishini ko'rsatadi. Bu esa iboralarni tahlil qilishda ham muhim ahamiyatga ega, chunki bunday iboralarda tana a'zolari nomlari ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanadi. N. M. Shanskiy esa frazeologik birliklarni til tizimida alohida qatlam sifatida qarab, ularning struktur va xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan [Телия 1996]. Olim frazeologik birliklarning til tizimidagi mustaqilligini asoslab, ularni leksik birliklarga yaqin, ammo o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan birliklar sifatida talqin qiladi. Bu

yondashuv iboralarni tilning alohida qatlamiga mansub birlik sifatida o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Somatik frazeologizmlar jahon tilshunosligida alohida yo'nalish sifatida ham o'rganilgan. B. S. Khodzhumyan frazeologizmlarni maxsus tadqiq qilib, ularning til tizimidagi universalligi va imkoniyatlarini asoslab bergan. Tadqiqotchining fikricha, iboralar inson tafakkurining eng qadimiy va tabiiy ifodasi bo'lib, ular orqali inson o'z ichki holatini tashqi belgilar orqali ifodalaydi [Ходжумян 1980]. Ushbu yondashuv iboralarni antropotsentrik til birliklari sifatida talqin qilishga imkon beradi. Ya'ni inson o'z tanasi orqali borliqni anglaydi va bu anglash til birliklarida, ayniqsa, frazeologizmlarda aks etadi. Shu jihatdan iboralar tilning universal va madaniy jihatdan boy qatlamlaridan biri sifatida qaraladi.

Turkiy tillarda ham frazeologiya, xususan, iboralar keng o'rganilgan. Turk tilshunosligida deyimlar alohida e'tibor markazida bo'lib, ular va struktur jihatdan tahlil qilingan. T. Aktaş tomonidan tatar tilidagi deyimlar, ya'ni iboralar o'rganilib, komponentlarning obrazlilik va ifodalilikdagi o'rni aniqlangan [Aktaş 2010]. Tadqiqotchining xulosalariga ko'ra, komponentlar iboralarning emotsional-ekspressiv kuchini oshiradi hamda ularning nutqda ta'sirchanligini ta'minlaydi. Bu esa iboralarni tilning eng faol va obrazli vositalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

M. S. Genç esa "Devonu lug'atit turk" asari asosida tillardagi iboralarni tahlil qilib, birliklarning tarixiy ildizlari va qadimiyligi haqida muhim xulosalar chiqargan [Genç 2012]. Olimning ta'kidlashicha, iboralar qadimiy til qatlamiga mansub bo'lib, ular orqali xalqning dastlabki dunyoqarashi va tafakkuri aks etadi. Bu esa iboralar nafaqat zamonaviy, balki tarixiy-lisoniy jihatdan ham muhim tadqiqot obyekti ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tillar kesimida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iboralar nafaqat lingvistik birlik, balki madaniy fenomen sifatida ham qaraladi. Ular orqali xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, mentaliteti va qadriyatlari ifodalanadi. Shu bois iboralarni qiyosiy o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalasi keng o'rganilgan bo'lib, iboralar ham ushbu yo'nalishda muhim o'rin tutadi. Xususan, Sh. Rahmatullayev va N. Mahmudov tomonidan yaratilgan "O'zbek tili frazeologik lug'ati" o'zbek frazeologiyasining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu lug'atda iboralar keng qamrovda izohlangan bo'lib, ularning xususiyatlari, qo'llanish doirasi va obrazlilik yoritilgan [Rahmatullayev va b. 2022]. Bu lug'at iboralarni tizimli o'rganish va tasniflashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida iboralar turli yo'nalishlarda o'rganilmoqda. U. Rashidova iboralarni-pragmatik jihatdan tahlil qilib, ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlari, kommunikativ imkoniyatlari va milliy-madaniy mohiyatini ochib bergan [Rashidova 2018]. Tadqiqot natijalari iboralar nutqda baholash, ta'sir o'tkazish va emotsional rang berish vazifasini bajarishini ko'rsatadi.

M. Gadoyeva somatizmlarning til tizimidagi o'rnini o'rganib, ularning mustaqil leksik-semantik guruh ekanligini asoslaydi. Tadqiqotchi birliklarning marosim va kundalik nutqda keng qo'llanishini ko'rsatib, ularning milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi [Gadoyeva 2021; 1749]. Bu esa iboralarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

M. Saidxonov birliklarning nutqiy aloqa jarayonidagi rolini o'rganib, ularning noverbal vositalar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [Saidxonov 2008; 26]. Uning fikricha,

inson tana a‘zolari bilan bog‘liq harakatlar va iboralar nutq jarayonida muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. M. Qurbonov esa harakatlar orqali ifodalangan ma’nolarni kommunikativ jihatdan tahlil qilib, ularning inson hissiy holatini ifodalashdagi rolini asoslaydi [Kurbanov 2021; 21].

X. Akbaraliyeva tomonidan komponentli maqollar lingvomadaniy jihatdan o‘rganilib, ularda xalqning tafakkuri va hayotiy tajribasi aks etishi ko‘rsatib berilgan [Akbaraliyeva 2021; 335]. Tadqiqot natijalari birliklarning xalq og‘zaki ijodida ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

N. Avezova esa leksikologiyaning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishini tahlil qilib, somatizmlarning leksik-semantik tizimdagi o‘rni va ularning frazeologik birliklar shakllanishidagi rolini ko‘rsatadi [Avezova 2024; 11]. Bu yondashuv iboralarni til tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iboralar tilshunoslikda muhim va ko‘p qirrali tadqiqot obyekti sifatida jahon, hamda o‘zbek tilshunosligida keng o‘rganilgan. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarning nazariy asoslari ishlab chiqilib, ularning yaxlitligi, barqarorligi va qayta qo‘llanish xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu yondashuvlar iboralarni ham frazeologik tizim doirasida izchil tahlil qilish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval. Somatik iboralar tadqiqi

Olim	Tadqiqot yo‘nalishi	Asosiy g‘oya
V.V. Vinogradov	Frazeologiya nazariyasi	Frazeologizmlar semantik tasnifi
A.V. Kunin	Frazeologik birliklar	Barqarorlik, qayta qo‘llanish
N.M. Shanskiy	Struktur-semantik tahlil	Frazeologiya alohida qatlam
V.N. Teliya	Lingvokulturologiya	Madaniyat va til bog‘liqligi
B.S. Khodzhumyan	Somatik frazeologiya	Universallik va antropotsentrizm
T. Aktaş	Turk frazeologiyasi	Somatik komponentlar obrazlilik
M.S. Genç	Tarixiy frazeologiya	Somatik iboralar qadimiyligi
U. Rashidova	O‘zbek frazeologiyasi	Semantik-pragmatik tahlil
M. Gadoyeva	Somatik leksika	Leksik-semantik guruh
M. Saidxonov	Noverbal aloqa	Imo-ishora va til
M. Qurbonov	Kommunikativ tahlil	Somatik harakatlar ma’nosi

Somatik frazeologizmlarni alohida yo‘nalish sifatida o‘rganish esa inson omiliga asoslangan antropotsentrik yondashuvning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda til birliklari inson tafakkuri, idroki va hissiy dunyosi bilan uzviy aloqada qaraladi. Natijada iboralar tilning universal va ayni paytda milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi qatlamlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Turkiy tillar doirasida olib borilgan tadqiqotlar iboralarning qadimiyligi, tarixiy ildizlari hamda obrazlilik xususiyatlarini ochib beradi. Ayniqsa, “Devonu lug‘atit turk” materiallari asosida o‘rganilgan iboralar birliklarning tillar taraqqiyotida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Bu esa iboralar xalqlarning umumiy madaniy merosiga mansub ekanligini tasdiqlaydi.

O‘zbek tilshunosligida esa iboralar frazeologiya, lingvokulturologiya, semantika va pragmatika yo‘nalishlarida o‘rganilib, ularning til tizimidagi o‘rni, emotsional-ekspressiv xususiyatlari hamda milliy-madaniy mohiyati yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iboralar nafaqat til birliklari, balki xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar va

mentalitetini aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. Shu bilan birga, mavjud ilmiy izlanishlar asosan alohida somatizmlar yoki muayyan komponentli iboralar doirasida olib borilgan bo'lib, bosh va ko'z somatizmi asosidagi iboralarni o'zbek va turk tillari kesimida tizimli, kompleks hamda qiyosiy-semantik jihatdan o'rganish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, ushbu iboralarning umumiylik va farqlilik jihatlari, guruhlari hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida to'liq yoritilmagan.

Demak, iboralarni, xususan bosh va ko'z somatizmi asosidagi frazeologik birliklarni qiyosiy jihatdan o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar frazeologiya va qiyosiy tilshunoslikni rivojlantirish bilan birga, til o'qitish va tarjima amaliyotida ham samarali natijalar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbaraliyeva, X. Somatizm komponentli maqollarning lingvokulturologik tahlili // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2019. – 25 b.
2. Aktaş, T. Tatar Türkçesinde deyimler ve ifadeler. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2010. – 350 p.
3. Avezova, N.S. O'zbek tilida leksikologiyani o'rganilishi // Zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari, 2021. – 18 b.
4. Gadoyeva, M.I. Somatik leksikaning til tizimidagi o'rni // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika, 2020. – 22 b.
5. Genç M.S. Divanü Lügati't-Türk'te deyimler. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2012. – 180 s.
6. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – 4 b.
7. Rashidova U.M. O'zbek tilidagi iboralarning -pragmatik tahlili (ko'z, qo'l va yurak komponentli iboralar misolida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 12 b.
8. Gadoyeva M.I. Somatik leksikaning xususiyatlari // Scientific progress. – 2021. – T.2, – №6. – B. 1749–1754.
9. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – Toshkent: Fan, 2008. – 26 b.
10. Kurbanov M.A. O'zbek, usmonli turk, ingliz tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2021. – 21 b.